Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

“UFQ” TRILOGIYASIDA UMID VA INSON RUHIYATI FALSAFASI

Beknazarova Zahro Alimardon qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
zahronazar1405@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20035167

Annotatsiya: O‘zbek adabiyoti tarixida inson taqdiri, jamiyat hayoti va tarixiy jarayonlarni badiiy uyg‘unlikda aks ettirgan asarlar alohida o‘rin tutadi. Ana shunday yirik epik asarlardan biri Ufq trilogiyasi bo‘lib, u Said Ahmad tomonidan yaratilgan muhim adabiy meros hisoblanadi. Ushbu trilogiya o‘zining keng qamrovi, hayotiy voqealarga boyligi va chuqur psixologik tahlillari bilan o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi.
Kalit so‘zlar: **“**Ufq”trilogiyasi, ichki kurash “ufq”ramzi, badiiy tahlil, umid falsafasi,obrazlar tizimi,psixologik tahlil.

Abstract: In the history of Uzbek literature, works that artistically reflect human destiny, social life, and historical processes occupy a special place. One of such major epic works is the “Horizon” trilogy, which is considered an important literary heritage created by Said Ahmad. This trilogy attracts readers with its wide scope, richness of life events, and deep psychological analysis.
Keywords: “Ufq” trilogy, internal conflict, symbol of horizon, literary analysis, philosophy of hope, system of characters, psychological analysis.

Аннотация: В истории узбекской литературы особое место занимают произведения, в которых в художественной форме отражены судьба человека, общественная жизнь и исторические процессы. Одним из таких крупных эпических произведений является трилогия «Уфк», являющаяся важным литературным наследием, созданным Саидом Ахмадом. Эта трилогия привлекает читателя своим широким охватом, богатством жизненных событий и глубоким психологическим анализом.
Ключевые слова: трилогия «Уфк», внутренний конфликт, символ «горизонта», художественный анализ, философия надежды, система образов, психологический анализ.

KIRISH. Asarda XX asrning eng murakkab davrlaridan biri — Ikkinchi jahon urushi arafasi, urush yillari hamda undan keyingi hayot tasvirlanadi. Muallif bu jarayonlarni faqat tarixiy voqealar sifatida emas, balki inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari va hayotga munosabati orqali yoritadi. Shu sababli asarda tasvirlangan har bir obraz va voqea o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi. Ushbu maqolada “Ufq” trilogiyasi nafaqat tarixiy-badiiy asar sifatida, balki “ufq” ramzi orqali ifodalangan umid, intilish va insoniy bardoshlilik falsafasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Ufq trilogiyasining badiiy va falsafiy mohiyatini anglash uchun, avvalo, asar nomiga yuklangan ramziy ma’noni tahlil qilish muhimdir. Muallif tomonidan tanlangan “ufq” tushunchasi oddiy tabiiy hodisa sifatida emas, balki inson hayoti va ruhiyati bilan chambarchas bog‘liq falsafiy timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Asar nomining o‘ziyoq uning chuqur mazmunini ochib beradi. Bilamizki,ufq paydo bo’lgan vaqtda yer bilan osmon bir-biriga juda yaqinday ko’rinadi.Ular o’rtasini bitta qizil chiziq ajratib turadi.Aynan shu holatda insonlar erta kelishini kutishadi,erta bugungi o’tgan kunidan yaxshi bo’lishiga umid qilishadi. Ufq — ko‘zga ko‘rinib turgan, ammo hech qachon yetib bo‘lmaydigan manzil bo‘lib, inson hayotidagi orzu, umid va kelajakka bo‘lgan ishonchni anglatadi. Shu jihatdan qaraganda, “ufq”

insonni doim oldinga undovchi ichki kuch vazifasini bajaradi. Menimcha, muallif bu ramz orqali inson ruhiyatiga xos bo‘lgan abadiy intilishni tasvirlagan. Chunki asardagi qahramonlar qanchalik og‘ir sinovlarga duch kelmasin, ular ichki jihatdan aynan shu “ufq” — ya’ni umid bilan yashaydi. Bu esa asarni oddiy tarixiy tasvirdan yuqori darajaga ko‘taradi.

Asardagi bosh obrazlar hayoti tahlil qilinganda, ularning har biri “ufq” tushunchasiga turlicha yondashishi ko‘rinadi. Masalan, Nizomjon obrazida insonning ichki kurashi va o‘z yo‘lini topishga bo‘lgan intilishi ustuvor. Uning “ufqi” tashqi muhitda emas, balki o‘z qalbida shakllanadi. Dildor obrazida esa sabr va vaqt omili orqali “ufq” sari yaqinlashish jarayoni aks etadi. U tezkor natija emas, balki bardosh va matonat orqali kelajakka ishonadi. Shu orqali muallif insonning ruhiy mustahkamligini asosiy qadriyat sifatida ko‘rsatadi. Adabiy manbalarda qayd etilishicha, asarda realizm uslubi yetakchi bo‘lib, qahramonlar orqali jamiyatdagi ijtimoiy va psixologik jarayonlar yoritilgan. Asardagi voqealar yuzaki qaraganda tashqi harakatlarga boydek tuyuladi, biroq chuqurroq tahlil qilinganda asosiy e’tibor qahramonlarning ichki o‘zgarishlariga qaratilganini ko‘rish mumkin. Har bir sinov aslida inson ruhiy mustahkamligini sinovdan o‘tkazadi. Menimcha, asardagi haqiqiy dramatizm voqealarda emas, balki qahramonlarning o‘sha voqealarga qanday munosabat bildirishida namoyon bo‘ladi. Chunki bir xil vaziyat turli insonlarga turlicha ta’sir ko‘rsatadi: kimnidir sindiradi, boshqasini esa chiniqtiradi. Ilmiy tadqiqotlarda ham asarda inson ruhiyati va ijtimoiy muhit o‘zaro bog‘liqlikda ochib berilgani ta’kidlanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, “ufq” tushunchasi asarda faqat kelajak timsoli emas, balki insonning o‘z ichki dunyosini qayta qurish jarayoni bilan ham bog‘liq. U insonni yashashga, kurashishga va oldinga intilishga undovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Asar o‘quvchini muhim savol ustida o‘ylashga majbur qiladi: insonni og‘ir vaziyatdan olib chiqadigan asosiy omil nima — tashqi yordammi yoki ichki ishonchmi? Qahramonlar misolida ko‘rinadiki, haqiqiy “ufq” inson qalbida shakllanadi va aynan shu ichki ishonch uni oldinga yetaklaydi. Shu jihatdan qaraganda, “Ufq” trilogiyasida tasvirlangan “ichki ufq” tushunchasi ayniqsa Ikromjon obrazi misolida yanada chuqurroq ochiladi. Ikromjon boshqalardan farqli ravishda hayot sinovlari qarshisida faqat tashqi kurash bilan emas, balki ichki iztiroblar orqali ham shakllanadi. Uning ruhiy kechinmalari, ikkilanmalari va ba’zan umidsizlikka yaqin holatlari inson tabiatining murakkabligini yaqqol namoyon etadi. Asar so‘ngiga kelib Ikromjonning holati shuni ko‘rsatadiki, insonning haqiqiy yutug‘i tashqi sharoitni yengish emas, balki o‘z ichki dunyosida muvozanat topishdir. U boshidan kechirgan sinovlar orqali ma’lum darajada o‘z “ufqi”ni anglaydi, ya’ni hayotga boshqacha nigoh bilan qaray boshlaydi. Menimcha, muallif aynan shu obraz orqali o‘quvchiga muhim bir haqiqatni yetkazadi: insonni oldinga yetaklaydigan kuch tashqi omillar emas, balki uning ichki ishonchi va umidni saqlab qolish qobiliyatidir. Ikromjonning yakuniy holati fojiaviy yoki mutlaq g‘alaba sifatida emas, balki hayotiy haqiqatga yaqin, murakkab va o‘ylantiruvchi tarzda tasvirlanadi. Shu orqali asar o‘quvchini aniq xulosa bermaydi, aksincha uni o‘ylashga majbur qiladi: har bir insonning “ufqi” uning o‘z qo‘lida va bu ufqqa yetishish yo‘li ichki kurashlardan boshlanadi. Muallif obrazlarni shunchaki “yaxshi” yoki “yomon” qilib ajratmaydi, balki ularni umidga bo‘lgan munosabati orqali farqlaydi. Kimdir umidni yo‘qotadi va shu bilan o‘z “ufqi”dan uzoqlashadi, kimdir esa eng og‘ir vaziyatda ham ichki nurini saqlab qoladi. Eng e’tiborli jihat shundaki, bu obrazlar mukammal emas — ular xato qiladi, ikkilanadi, ba’zan tushkunlikka tushadi. Aynan shu orqali asar o‘quvchini chuqurroq o‘ylashga majbur qiladi: insonni oldinga yetaklaydigan kuch uning tashqi sharoiti emas, balki ichki “ufqi”, ya’ni umidni saqlab qolish qobiliyatidir.

Asar voqealarini o‘qib shuni xulosa qilishimiz mumkinki,asarning asl mohiyati tarixiylikni yoritish emas,balki o‘zbek xalqining butun insoniyat ulug‘laydigan samimiyati,sof qalbi va g‘ururini yoritib berishga qaratilgan.Birgina “Qirq besh kun” bobi voqealariga nazar tashlasak, “Katta Farg‘ona kanali”qurilish jarayonida xalq xursand,hasharga barcha o‘z ixtiyori bilan qatnashgan,to‘kin-sochin hayot, misli Navro‘z sayli singari ko‘tarinki ruhda jarayonlar kechadi.Tarix ham ushbu “hashar”ni shu tarzda bo‘lgan deydimi? Tarix haqiqatlari asar voqealaridan tubdan farq qiladi.1939-yilda 45 kunga

mo‘ljallangan ushbu loyiha Stalin davrida joriy qilingan majburiy mehnat mahsuli bo‘lgan qurilish edi. Kanalga dastlab Iosif Stalin nomi beriladi (hozir Usmon Yusupov nomida) 160 ming kishi majburiy mehnati evaziga barpo qilinadi. “Suyaklar ustiga qurilgan kanal bu” – deydi Sovet davrida siyosiy mahbus sifatida jazo o‘tagan 72 yashar Mirtemir Mirabdullayevning Ozodlik radiosi bilan suhbatda. Har bir mahalla¸ har bir guzar raznaryadka asosida kanal qurilishiga qul yetkazib turish majburiyatini olgan. Kim qarshi bo‘lsa xalq dushmani deb otilgan. Qancha-qancha odam kanal qazish chog‘ida sillasi qurib o‘lgan. Brigadirlar urib o‘ldirgan holatlari ham bo‘lgan. Nimasini aytasiz¸ o‘sha paytda barcha qurilishlar majburiy mehnat evaziga barpo etilgan¸ deydi Mirtemir Mirabdullayev.Ushbu madh borasda keyinchalik Said Ahmad pushaymonlik satrlarini yozadi:

“Biz hammamiz, jami ijodkorlar oftobda kuyib, kechalari chivinga talanib, qum bo‘ronlarida yuz-ko‘zini doka bilan o‘rab ishlayotgan yupun odamlarni yurak amri bilan vatanparvarlik burchini ado etgani kelgan, chinakam fidoyi, ongli, ilg‘or sovet grajdanlari deb ta‘rifladik”. degan adib maqola davomida : “Aslida shundaymikin?” degan savol qo‘yadi va shunday alamli mushohadalarni o‘rtaga tashlaydi: “Bu to‘g‘rida biron daqiqa bo‘lsin o‘ylab ko‘rmadik. Qaytaga ularni baxtiyor, to‘kin sovet oilasi, deb ta‘rifladik. Hatto, cho‘l shamollaridan qorayib sopolga o‘xshab ketgan yuzlarini go‘zallik timsoli, deb tasvirladik. Ketmondan qadoq bo‘lib ketgan qo‘llarini “oltin qo‘llar” dedik”. Eng achinarlisi, “Ichingda shuncha gap bor ekan, nega miq etmay yuribsan, deb hech kim so‘ramadi...” [5: 34].

Asar o‘zbek xalqining yillar davomidagi avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlari, oila,qarindosh-urug‘larga hurmat,vatanparvarlik,vijdon,g‘urur, or-nomusi bilan ziynatlangan. Shu sababli tarixga yaqin o‘qirmonlarga tavsiya beramizki,asarni tarixiy haqiqatlarga emas,asarda qadrlangan insoniy fazilatlarga bog‘lab o‘qish o‘rinli bo‘lishini.Adabiyot tarixiy ensiklopediya emas barchasi o‘z holicha yoritiladigan.U qalb istagi orzu-havasi,ushalmagan armonlar jam bo‘lgan makon.Biz bu yerga xotirjamlik, haqiqiy ishq,doim qidirilgan do‘stlik,qadrlangan his-tuyg‘ular uchun talpinamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Said Ahmad. “Ufq” trilogiyasi.2024.“Turon Zamin” nashriyoti.
2. https://uzpedia.uz/pedia/ufq_trilogiya
3. https://ojs.renaissance.com.uz/index.php/nrj/article/view/4510
4. https://pedagoglar.org/index.php/04/article/view/1359
5. https://www.ozodlik.org/a/24882176.html